

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI KREDIT BILAN QO'LLAB QUVVATLASH

Abduvahobov Shahzod

SamISI, Bank ishi kafedراسi assistenti

Pardaboyev Ohunjon

SamISI, BI-123 guruh talabasi

Annotatsiya: *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari yildan - yilga o'z mavqeyini mustahkamlab bormoqda, ular mahalliy xom-ashyo negizida eksportbop yoki import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, iste'mol bozorini sifatli tovarlar bilan to'ldirish, jamiyatga esa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash orqali iqtisodiyotimizga katta naf keltiradi. Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklarini kreditlash haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *tadbirkorlik faoliyati, biznes, kredit, bank, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kichik biznes.*

SUPPORTING BUSINESS ACTIVITY WITH CREDIT

Abduvakhobov Shakhzod

SIES, assistant of the Department of Banking

Pardaboyev Okhunjan

SIES, student of group BI-123

Abstract: *Small business and private business entities are strengthening their position from year to year, they are able to produce exportable or import-substitute products based on local raw materials, fill the consumer market with quality goods, and contribute to society. will greatly benefit our economy by paying taxes and other mandatory fees. This article discusses lending to small businesses and private entrepreneurs.*

Key words: *entrepreneurial activity, business, credit, banking, financial support, small business.*

KIRISH

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgani holda uning taraqqiyotini ta'minlash, milliy iqtisodiyotdagi salmog'ini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ularni taraqqiy toptirishda mazkur sub'ektlarning bugungi kun talabi darajasidagi zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalanish darajasiga tayanilishiga erishish lozim. Buning uchun ularni rivojlantirishning yangi manbalari, ham chet el investitsiyalarini keng jalb qilish hisobiga, ham ichki manbalar, bank kreditlari hisobiga doimo kashf etib borilishi darkor. Bu siyosatning asosiy maqsadi, nafaqat, kichik biznes sub'ektlarining miqdor jihatdan o'sishini ta'minlash, balki ularning faoliyat samaradorligini oshirishdan iboratdir. Mazkur jarayonlarda ularni imtiyozli asoslarda kreditlash eng asosiy bo'g'in bo'lib maydonga chiqadi. Bunda kichik biznes sub'ektlarini kreditlash markazida

tijorat banklarining ular bilan o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan munosabatlari o'rin egallaydi. Mazkur munosabatlarning uzoq muddatli jarayonlar negiziga asoslanishi kichik biznes investitsiya loyihalarini kreditlash tizimi shakllanishiga imkon beradi.

Tadbirkorlik subyektlarini mikrokreditlash mexanizmlarining samaradorligi va unumdorligini oshirish maqsadida bir qancha takomillashtirishlarni amalga oshirish mumkin. Birinchidan, kredit talabgorlari uchun keng qamrovli va shaffof baholash tizimini yaratish haqiqiy ehtiyoj va qobiliyatga ega bo'lgan jismoniy shaxslar va korxonalariga moliyaviy yordam ko'rsatilishini ta'minlaydi. O'zbekistonda biznes yuritish muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlikka keng erkinliklar berish orqali kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash ularni rivojlantirish maqsadida qabul qilingan davlat dasturlari asosida banklar tomonidan imtiyozli kreditlash orqali hududlarda aholining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi, uning turmush tarzini yaxshilash va ish bilan bandligini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Respublikada «kichik va o'rta biznes sub'ektlariga ko'rsatilayotgan xizmatlarning ko'lami va sifatini, shu jumladan tadbirkorlik sub'ektlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda xizmat ko'rsatish orqali oshirish kabi vazifalar belgilab berilgan» banklarning kichik biznes sub'ektlarini kreditlashni rivojlantirish borasidagi imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab berish muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik biznes sub'ektlarini rivojlantirish bo'yicha kreditlash sohasidagi amalda yuzaga kelayotgan muammolarni chuqur tahlil qilish hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi. Shuning bilan birga orttirilgan tajriba hamda xalqaro amaliyot kompleks va o'zaro bir-birini to'ldiruvchi kredit olish imkoniyatidan iborat bo'lgan yaxlit tizimni shakllantirish yuzasidan tadqiqot ishlarini amalga oshirish zaruriyatini ko'rsatib beradi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish orqali uning YaIMdagi ulushini oshirish, aholini ish bilan band etish, real daromadlarini ko'paytirish va turmush farovonligini yaxshilashda mikromoliyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Mikromoliyalash aholini kambag'allikdan xalos etishi, ya'ni mehnatga layoqatli, iqtidorli aholi qatlamiga ish o'rinlari yaratish orqali o'z g'oya va yangiliklarini ro'yobga chiqarishi, daromad olish manbalarini kengaytirish asosida turmush farovonligini yaxshilashi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'li bilan ularni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy faol sub'ektlariga aylanishiga imkon beradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi bo'lgan mulkdorlar sinfini, ya'ni o'rta sinfini shakllantirishdagi ulkan ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Shunday ulkan vazifalarini amalga oshirishda bank tizimi kredit berish amaliyotlarini taxlil etish, urganish va ularni respublika iqtisodiyotiga tadbik etish kabi dolzarb vazifalarni amalga oshirish lozim. Mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash imkonini bermoqda. O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlash, uy xo'jaligi daromadlarining shakllanishi kabi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar echimi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini mikromoliyalash amaliyotining qay darajada rivojlanganligiga bog'liq bo'ladi.

XULOSA

Tadbirkorlik subyektlari uchun mikro kredit faoliyati mexanizmini takomillashtirish moliya institutlari, siyosatchilar va tadbirkorlarning o'zlarini jalb qiladigan kompleks yondashuvni talab qiladi. Mikro kredit ekotizimi ariza berish jarayonlarini soddalashtirish, moslashtirilgan kredit mahsulotlarini yaratish, salohiyatni oshirish tashabbuslarini taklif qilish, hamkorlikni rivojlantirish va mustahkam monitoring tizimlarini joriy etish orqali barqaror o'sish va iqtisodiy rivojlanishni keng miqyosda boshqaradigan intiluvchan tadbirkorlarga imkoniyat yaratishi mumkin. Birgalikda sa'y-harakatlar va umumiy qarashlar bilan biz yanada samarali va farovon biznes manzarasiga yo'l ochishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son «Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. - <https://lex.uz/uz/docs/-6609110>
2. Amonov M. Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish. - Toshkent: 2024.
3. Kambarova Sh. O'zbekistonda innovatsiya jarayonlari rivojlanishi sharoitida kichik biznesning eksport salohiyatini oshirish. - Toshkent: 2023.
4. Salayev J. Sanoatda kichik biznes sub'yektlari faoliyati samaradorligini oshirishning istiqbolli yo'nalishlari. - Toshkent: 2023